

## **«Inno Week-2019» innovatsiyalar forumi va ko'rgazmasiga talabalar tashrifi davom etmoqda**

Avval xabar berganimizdek, («Inno Week-2019» innovatsiyalar forumi) «UZEXPOMARKAZ» milliy ko'rgazma majmuasida InnoWeyek.uz innovatsion g'oyalar haftaligi davom etmoqda. Bu ko'rgazmada mahalliy va xorijiy tadqiqot va innovatsion markazlar, investitsiya fondlari, texnologiya agentliklari, texnoparklar va biznes-inkubatorlarning vakillari qatorida institutimiz professor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalari o'zlarining yangi ishlanmalari bilan ishtirok etmoqda.

Ko'rgazmada Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha bo'linma boshlig'i M.Sarimsaqqov institut olimlari va iqtidorli talabalari tomonidan ishlab chiqilgan yangi innovatsion ishlanmalarni ko'rgazma ishtirokchilari va mehmonlariga taqdim etmoqda.

29 oktyabr kuni Gidromelioratsiya fakultetining 3-bosqich 7-8-9-10 guruh talabalari dotsent M.Sarimsaqqov rahbarligida ko'rgazmada bo'lib, barcha soha yangiliklari bilan tanishib chiqishdi.

Ko'rgazmaning asosiy maqsadi - yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni namoyish etish, aholi turmush darajasini oshirish va eng yangi texnologiyalarni almashish orqali mamlakat iqtisodiyotiga foydali bo'lgan yangi investitsiya imkoniyatlarini jalb etish bo'lib, ko'rgazma 31 oktyabr soat 16:00 ga qadar davom etadi.



Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'limi xodimi D.Akbarov axboroti  
Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov